

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida
kelishuvning
11-ILOVASI**

**O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasida chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bo‘yicha
operatsiyalarni amalga oshirish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

Xorijiy valyuta – AQSH dollari, ingliz funt sterlinglari, yevro, shveysariya franki va yapon iyenasi.

Milliy valyuta – o‘zbek so‘mi.

O‘zRVB – O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi.

IBK – Internet-Bank-Klient.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan atama va ta‘riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib Mijoz tomonidan to‘ldirilgan va imzolangan, maqsad (xorijiy valyuta xarid qilinganda), summa, valyuta ko‘rsatiladigan va xarid qilish uchun asos hisoblangan va ularga asosan Bank O‘zRVB da Mijozning xorijiy yoki milliy valyutasini xarid qilish yoxud sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradigan hujjatlar ilova qilingan, IBK tizimi orqali elektron shaklda yoki qog‘ozda kelib tushgan Buyurtmanomaga (1-Ilova yoki 2-Ilova) asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi).

Buyurtmanomalar Bankka ish kunining soat 13-00 gacha taqdim qilinadi va 2-3 bank kuni ichida ijro qilinadi.

Buyurtmanomalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2001-yil 10-iyuldagi “Birjadan tashqari valyuta bozori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 294-sonli Qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida taqdim qilinadi. Buyurtmanomadagi nomuvofiqliklar (xatolar) Bank tomonidan operatsiyani rad qilish uchun asos bo‘ladi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Tariflar, shuningdek Mijoz tomonidan lozim darajada to‘ldirilgan va qo‘lda yoki ERI orqali imzolangan Buyurtmanoma, birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasidagi O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga asosan O‘zRVB banklararo savdo sessiyalarida xorijiy valyutani oldi-sotdi qilish bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazishga topshiriq Shartnomasi orqali tuzilgan hisoblanadi.

III. MIJOZ TOMONIDAN VALYUTANI SOTISH TARTIBI

3.1. Buyurtmanoma berilgunga qadar xorijiy valyutani sotish uchun yetarli bo‘lgan miqdordagi xorijiy valyutani 29801 blok-hisobvarag‘ida zaxiralash.

Buyurtmanomada valyuta nomi, summasi va Mijoz tomonidan valyutani sotishning minimal kursi ko‘rsatiladi.

3.2. Mijoz Bankka Buyurtmanoma berish orqali valyutani sotish bo‘yicha bitim amalga oshirilayotgan vaqtda uning xorijiy valyutadagi blok-hisobvarag‘ida bitimni amalga oshirish uchun yetarli mablag‘lar borligini tasdiqlaydi.

3.3. Buyurtmanoma berilganidan va blok-hisobvaraqda zarur pul mablag‘lari zahiralangandan so‘ng Bank Mijozning ijroga qabul qilingan Buyurtmanomasiga asosan xorijiy valyutadagi summani Mijozning tegishli hisobvarag‘iga ko‘chirib berish orqali O‘zRVBda Mijozning nomidan va hisobidan valyutani sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradi.

3.4. Bank amaldagi Bank Tariflariga asosan vositachilik haqini Mijozdan akseptsiz tartibda undiradi.

3.5. O‘zRVBda o‘rnatilgan kurs Mijozning Buyurtmanomasida ko‘rsatilgan sotuvning minimal kursi doirasida bo‘lmagunicha Buyurtma qanoatlantirilmadan turiladi. Mijoz Buyurtmanomani qaytarib olish va sotuvning minimal kursi yangi chegarasi belgilangan yangi Buyurtmanoma berish orqali sotuvning minimal kursi miqdorini o‘zgartirishi mumkin.

3.6. Ushbu tartibga asosan valyutani sotish xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqa Shartnomasining amal qilish muddati davomida bir necha marotaba amalga oshirilishi mumkin.

3.7. Konvertatsiya qilingan milliy valyutadagi mablag‘lar milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga kirim qilinadi.

IV. MIJOZ TOMONIDAN VALYUTANI XARIB QILISH TARTIBI

4.1. Buyurtmanoma berilgunga qadar xorijiy valyutani xarid qilish uchun yetarli bo'lgan miqdordagi xorijiy valyutani 29801 blok-hisobvarag'ida zaxiralash.

Buyurtmanomada valyuta nomi, summasi va Mijoz tomonidan valyutani xarid qilishning maksimal kursi ko'rsatiladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining valyuta to'g'risidagi qonunchiligiga asosan xarid qilish uchun asos hisoblanadigan hujjatlar ilova qilinadi;

4.2. Mijoz Bankka Buyurtmanoma berish orqali valyutani xarid qilish bo'yicha bitim amalga oshirilayotgan vaqtda uning hisobvarag'ida Buyurtmanomada ko'rsatilgan bitimni amalga oshirish uchun yetarli mablag'lar borligini tasdiqlaydi.

4.3. Buyurtmanoma berilganidan va blok-hisobvaraqa zarur pul mablag'lari zahiralangandan so'ng Bank Mijozning ijroga qabul qilingan Buyurtmanomasiga asosan Mijozning maxsus hisobvarag'iga ko'chirib berish orqali O'zRVBda Mijozning nomidan va hisobidan valyutani xarid qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi.

4.4. Bank amaldagi Bank Tariflariga asosan vositachilik haqini Mijozdan akseptsiz tartibda undiradi.

4.5. O'zRVBda o'rnatilgan kurs Mijozning Buyurtmanomasida ko'rsatilgan xarid qilishning maksimal kursi doirasida bo'lmagunicha Buyurtma qanoatlantirilmasdan turiladi. Mijoz Buyurtmanomani qaytarib olish va xarid qilishning maksimal kursi yangi chegarasi belgilangan yangi Buyurtmanoma berish orqali xarid qilishning maksimal kursi miqdorini o'zgartirishi mumkin.

4.6. Ushbu tartibga asosan valyutani xarid qilish xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqa Shartnomasining amal qilish muddati davomida bir necha marotaba amalga oshirilishi mumkin.

4.7. Konvertatsiya qilingan valyuta mablag'lari xorijiy valyutani xarid qilishga Buyurtmanoma berilgunga qadar ochilishi shart bo'lgan 22614% maxsus valyuta hisobvarag'iga kirim qilinadi. Maxsus valyuta hisobvaraqlariga kirim qilingan mablag'lar tuzilgan shartnomalarga va qonunchilikka asosan boshqa hujjatlarga asosan Mijoz tomonidan qat'iy ravishda faqat maqsadiga ko'ra ishlatiladi.

V. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bankning majburiyatlari:

5.1.1. Mijozga xizmat ko'rsatish va uning topshirig'iga asosan (qog'ozda va elektron shaklda) ushbu Tartibda nazarda operatsiyalarni amalga oshirish;

5.1.2. Mijoz tomonidan taqdim qilingan O'zRVBda xarid qilishga va/yoki sotib olishga Buyurtmanomani ushbu Tartibda nazarda tutilgan shartlarda ijroga qabul qilingan Buyurtmanomalarga asosan (qog'oz va elektron ko'rinishda) 3 (uch) ish kuni ichida operatsion kun davomida ko'rib chiqish;

5.1.3. O'zRVBda valyutani sotish va/yoki xarid qilish bo'yicha operatsiya amalga oshirilgan sanadan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan, milliy va xorijiy valyutadagi tegishli hisobvaraqlarida yetarli mablag'lar mavjudligiga rioya qilish sharti bilan milliy yoki xorijiy valyutadagi mablag'larni kirim qilish;

5.1.4. Mijoz tomonidan unga ishonib topshirilgan pul mablag'larining butligini ta'minlash.

5.2. Mijozning majburiyatlari:

5.2.1. O'zRVBda valyuta mablag'larini sotish va/yoki xarid qilish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni Bankka taqdim qilish;

5.2.2. O'zRVBda valyuta mablag'larini xarid qilish va/yoki sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun yetarli miqdordagi pul mablag'larini tegishli hisobvaraqlarda zaxiralash;

5.2.3. Valyuta mablag'larini xarid qilish va/yoki sotish bo'yicha xizmatlar uchun bank Tariflariga asosan to'lovlar qilish;

5.2.4. Mijoz ushbu orqali Bankning vositachilik haqini akseptsiz tartibda ushlab qolish (yechib olish)iga o'zining so'zsiz va qaytarib olinmaydigan roziligini beradi.

5.3. Bankning huquqlari:

5.3.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, Markaziy Bankning normativ hujjatlarida, Bankning ichki hujjatlarida o'rnatilgan hisob-kitoblar tartibining buzilish holatlari aniqlanganda, shuningdek, Mijoz tomonidan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z vaqtida taqdim qilish tartibi buzilganida operatsiya o'tkazishni to'xtatib turish bo'yicha choralar ko'radi, ya'ni, qonunchilikka zid bo'lgan to'lovni o'tkazishni rad qiladi va uni o'tkazishni to'xtatib turadi;

5.3.2. soliq organining taqdimnomasini ijro qilish maqsadida valyuta mablag'larini O'zRVBda byudjet oldidagi qarzdorlikni qoplash uchun yetarli bo'lgan hajmda sotish kunidagi kurs bo'yicha Mijozning roziligisiz sotish va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 15.03.2012-yil 2342-son bilan ro'yxatga olingan Instruksiyey o'poriyadke spisaniya denejnyx sredstv s bankovskix schetov xozyaystvuyushix subyektov, (normadan o'zbekcha nomini ko'rish kerak) asosan Mijozning milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga so'mdagi ekvivalentini ko'chirib beradi;

5.3.3. Zarurat tug'ilganida Bank tomonidan valyutani xarid qilishni (maqsadli ishlatilishini) tasdiqlash uchun zarur deb o'rnatilgan har qanday qo'shimcha hujjatlarni Mijozdan taqdim qilishni talab qilish;

5.3.4. Valyutani xarid qilish yoki sotish bo'yicha operatsiyani amalga oshirish asoslari shubha keltirib chiqarsa, uning qonuniyligi aniqlangunga qadar Valyutani xarid qilish yoki sotish bo'yicha operatsiyani kechiktirib turish.

5.4. Mijoz Bankdan hujjat aylanishi qoidalari va valyutani tartibga solishning boshqa masalalari bo'yicha ma'lumot olish huquqiga ega.

5.5. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Shartnoma bo'yicha majburiyatni buzgan Tarafdin Shartnoma summasining 1,5% miqdorida jarima undiriladi.

6.2. Qolgan hollarda Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Shartnoma Mijoz tomonidan Buyurtmanoma berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

7.3. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara yo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

7.4. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.

**O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasida chet el valyutasini oldi-
sotdi qilish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish Tartibiga 1-
Ilova**

(vakolatli bank nomi)

XORLIJY VALYUTANI SOTISHGA BUYURTMANOMA

Buyurtmachining nomi va INNs:

Pochta manzili:

Telefon/Faks raqami:

Bitim bo‘yicha masalalarni yechish vakolatiga ega xodimning lavozimi va F.I.Sh:

So‘mdagi hisobvaraқ №

“Kapitalbank” ATB MFO
(bank nomi (bank kodi))

Xorijiy valyutadagi hisobvaraқ №

“Kapitalbank” ATB MFO
(bank nomi (bank kodi))

Xorijiy valyutadagi maxsus blok-hisobvaraқ №

“Kapitalbank” ATB MFO
(bank nomi (bank kodi))

Bank nomidan, biroq bizning topshirig‘imizga asosan va bizning hisobimizdan quyidagi shartlarda xorijiy valyutani sotish bo‘yicha topshiriқ beramiz:

Sotiladigan valyutaning summasi va nomi	Sotuvning so‘mdagi minimal kursi	Sotuvning so‘mdagi minimal kurs bo‘yicha umumiy summasi

Buyurtmanomada ko‘rsatilgan kurs bo‘yicha _____ miqdoridagi (xorijiy valyutadagi) summa blok-hisobvaraқda zahiralangan. Bitim tuzilgan taqdirda, Bankka amalga oshirilgan bitim summasining 0,1 % miqdoridagi Bank vositachilik haqini memorial order bilan yechib olishga topshiriқ beramiz;

Quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

Korxonа (tashkilot) rahbari

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

“ ” 20 y

Tijorat bankida buyurtmanomalarni ro‘yxatga olish kitobi bo‘yicha buyurtmanomaning kirim raqami va qabul qilingan sanasi

(ro‘yxat raqami va buyurtmanoma sanasi)

(valyuta operatsiyalari bo‘limi ijrochisi
imzosi)

(F.I.Sh.)

(valyuta operatsiyalari bo‘limi boshlig‘i
imzosi)

(F.I.Sh.)

**O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida chet el valyutasini oldi-
sotdi qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish Tartibiga 2-
Ilova**

XORIJIY VALYUTANI XARID QILISHGA BUYURTMANOMA

Buyurtmachining nomi va INNsi: " _____ -" INN _____

Pochta manzili: _____

Telefon, faks raqami:

Bitim bo'yicha masalalarni yechish vakolatiga ega xodimning lavozimi va F.I.Sh:

So'mdagi hisobvaraқ

№: _____ (bank nomi) _____ (bank kodi)

Xorijiy valyutadagi hisobvaraқ

№: _____ (bank nomi) _____ (bank kodi)

Xorijiy valyutadagi maxsus hisobvaraқ

№: 22614 _____ (bank nomi) _____ (bank kodi)

Sotib olinadigan xorijiy valyutadan foydalanish maqsadi (keraklisi ostida chiziladi):

- a) uskunani import qilish uchun;
- b) tarkibiy qismlarini import qilish uchun;
- v) xom ashyo va materiallarni import qilish uchun;
- g) xizmatlarni import qilish uchun;
- d) iste'mol tovarlarini import qilish uchun;
- ye) xorijiy kreditorlarga xizmat ko'rsatish uchun;
- j) lizing shartnomalar bo'yicha lizing to'lovlarini amalga oshirish uchun;
- z) xorijiy investorning daromadini, dividendlarini va boshqa daromadlarini repatriatsiya qilish;
- i) tayinlangan aviatashuvchilar daromadlarining xarajatlardan oshishini repatriatsiya qilish;
- k) xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun;
- l) boshqa maqsadlar uchun (maqsad ko'rsatilsin):

Bank nomidan, biroq, bizning topshirig'imizga asosan va bizning hisobimizdan quyidagi shartlarda xorijiy valyutani xarid qilishga bitim tuzish uchun topshiriқ beramiz:

	Sotib olinadigan valyutaning summasi va nomi	Xaridning so'mdagi maksimal kursi	Xaridning kurs bo'yicha so'mdagi umumiy summasi	
			so'm	

Bitim raqami va sanasi: № _____
(ushbu qator xorijiy valyuta a)-j) bandlarida ko'rsatilgan maqsadlar uchun xarid qilinganda to'ldiriladi)

* Buyurtmanomada ko'rsatilgan kurs bo'yicha _____ miqdoridagi (milliy valyuta - so'mdagi) summa №:22613 _____ (valyuta bozorida konvertatsiya qilish uchun mijozlarning zaxiralangan pul mablag'alari) hisobvaraqa zahiralangan.

Bitim tuzilgan taqdirda, Bankka №:22613 _____ hisobvarag'imizdan xarid qilingan xorijiy valyutaning xarid kursi bo'yicha so'mdagi ekvivalentini yechib olishga topshiriq beramiz. Amalga oshirilgan bitim summasining ____% miqdoridagi Tijorat bankining foydasiga to'lanadigan vositachilik haqini hisobvarag'imizdan yechib olishga topshiriq beramiz.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. _____
2. _____
3. _____

Korxonada (tashkilot) rahbari

_____ m. o'. (imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

“ _____ ” _____ 2019g.

Tijorat bankida buyurtmanomalarini ro'yxatga olish kitobi bo'yicha buyurtmanomaning kirim raqami va qabul qilingan sanasi

_____ (imzo)

_____ (F. I. Sh.)

* Xorijiy valyutani xarid qilish uchun yetarli bo'lgan mablag'larning 22613000 _____ hisobvarag'ida zahiralanganligi Bank tomonidan buyurtmanomani qabul qilishning majburiy sharti hisoblanadi.